

**GUSTAVE LE BON, RALF DAHRENDORF, EMILE DURKHEIM, GEORG SIMMEL
QARASHLARIGA KO'RA MOJAROLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
FIKRLARNING UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI.**

Shahbozbek Pardayev

JIDU, Xalqaro munosabatlar fakulteti, Birinchi bosqich talabasi.

Telefon: +998-77-718-21-05 Email: shaxbozbekpardayev029@gmail.com

E'tibor Sultonova

Ilmiy rahbar: JIDU Professor o'qituvchisi, siyosiy fanlari doktori.

Telefon: +998-90-324-20-24

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Gustave Le Bon, Ralf Dahrendorf, Emile Durkheim hamda Georg Simmelning mojarolarni hal etish texnologiyalariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda konfliktlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularning ijtimoiy barqarorlik va siyosiy tizimlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, olimlarning mojarolar mohiyati, ularni boshqarish va bartaraf etish usullari haqidagi nazariyalari o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, umumiy va farqli jihatlari ochib beriladi. Maqola zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda konfliktologik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *mojaro, konfliktologiya, siyosiy mojaro, ijtimoiy barqarorlik, Gustave Le Bon, Ralf Dahrendorf, Emile Durkheim, Georg Simmel, konflikt nazariyasi, jamiyat, siyosiy texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются взгляды Гюстава Лебона, Ральфа Дарендорфа, Эмиля Дюркгейма и Георга Зиммеля на технологии разрешения конфликтов. В исследовании рассматривается роль конфликтов в развитии общества, а также их влияние на социальную стабильность и политические системы. Особое внимание уделяется сравнительному анализу теорий ученых о природе конфликтов, способах их управления и предотвращения. Также раскрываются общие и отличительные стороны их научных подходов. Статья направлена на выявление значения конктологических концепций в современных политических и общественных процессах.*

Ключевые слова: *конфликт, конктология, политический конфликт, социальная стабильность, Гюстав Лебон, Ральф Дарендорф, Эмиль Дюркгейм, Георг Зиммель, теория конфликта, общество, политические технологии.*

Abstract: *This article examines the perspectives of Gustave Le Bon, Ralf Dahrendorf, Emile Durkheim, and Georg Simmel on conflict resolution technologies and their role in social and political development. The study analyzes the nature of conflicts, the factors leading to social tensions, and the mechanisms for maintaining stability in society. Special attention is given to the comparative analysis of the scholars' theoretical approaches toward conflict management, prevention, and resolution. The article identifies both the common and distinctive aspects of their ideas and evaluates their significance in*

contemporary political and social processes. Furthermore, the research highlights the importance of classical conflict theories in understanding modern global and domestic conflicts and in developing effective political strategies for ensuring social harmony and stability.

Keywords: *conflict, conflictology, political conflict, social stability, conflict resolution, Gustave Le Bon, Ralf Dahrendorf, Emile Durkheim, Georg Simmel, political technologies, society.*

Hech kimga sir emaski, bugun misli ko'rilmagan darajada shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni oldindan prognoz qilish tobora qiyinlashib bormoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida manfaatlar to'qnashuviga guvoh bo'lasan kishi. Bu to'qnashuvlar faqatgina shaxsiy yoki jamoaviy qiziqishlar, ko'zlangan maqsadlar va moliyaviy imkoniyatlar uchun bo'lmay, balki siyosiy - davlatlararo va millatlararo konfliktlar yuzaga chiqishiga ham olib kelish xavfi oshmoqda.

Xususan, tarixan XXI asrga qadar o'tgan davr mobaynida insoniyat bu holatga bot-bot shohid bo'ldi. Biroq, siyosiy tajriba va texnologiyalar misolida, shuningdek, falsafa va sotsiologiya fanlari nuqtayi nazaridan qaraganda mojarolar har doim inqirozlarga olib kelmagan.

Zero, tanganing boshqa tomoni bo'lganidek, aksar vaziyatlarda mojarolar jamiyat taraqqiyotiga turtki bo'luvchi, yangi davr ibtidosiga tamal toshi bo'luvchi omil, yoxud uning kelajagini hozirgi holatga ko'ra bashorat qiluvchi "pragmatik indikator" vazifasini ham bajaradi.

Postmodernizm zamonida davlat boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda eng asosiy maqsad siyosiy mojarolarni bartaraf etishgina emas, balki ularga oqilona yechim berish va kelajakda yana shu kabi salbiy oqibatlarga olib keluvchi konfliktlarning oldini olishning chora-tadbirlarini ko'rishdir.

Bugungi siyosiy texnologiyalar fanining ham bosh maqsadi konfliktlarning destruktiv ta'sirini, xavf oqimini konstruktiv o'zanga burishdir.

Darhaqiqat, mojarolar qochib bo'lmaydi, ularning tabiatni biladigan siyosiy elitalar ratsional qaror qila oladi, ularni tinch va barqarorlik sari yo'naltira oladi.

Albatta, har qanday holatda ham moziyga qarab ish tutmoq maqbul rejalarandir. Shu sababli, bugungi mojarolar qarshisida tik va qudratli tura olish uchun, avvalo, klassik sotsiologik nazariyalarni tahlil qilish va shu sohada ilmiy tadqiqotla qilgan olimlarning ishlarini izchil o'rganish zarur.

Zero, buyuk mutafakkir, faylasuf va strateg, Xitoy tarixchisi Sun Tzu aytganidek, "eng buyuk g'alaba - bu jang qilmasdan, mojarolarga va kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymasdan qo'lga kiritilgan g'alabadir... urushdan keyin tomonlarda haiqiqiy g'olib bo'lmaydi, har kim talofat ko'radi, zaiflashadi, faqatgina taraddudini ko'rganlar bundan mustasno!"



Mojaro - aslida bu turli jabhalarda turlicha talqin qilinadigan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy tushunchadir. Bunda nafaqat manfaatlar, balki qarashlar, qadriyatlar va hatto maqsadlar to'qnashadi. Konfliktologiyada mojaro termini insoniyat evolutsiyasining ajralmas qismi o'laroq ko'riladi. Chunki, rivojlanish ko'pincha raqobat va qarama-qarshiliklar ustiga quriladi. Antik yunon faylasufi, mutafakir Geraklit ham o'z vaqtida: "kurash va bahs hamma narsaning otasi" deb be'jiz ta'kidlagan emas. Bundan tashqari ushbu fikrga yana bir aksioma sifatida Karl Marx va uning qarashlari, jumladan sinfiy kurashning jamiyatni tarixan harakatlantirib kelayotgan kuch deb talqin etishi zamonaviy siyosatshunoslikda ham mojarolarning faqat "qora" tomonini emas, konstruktiv funksiyalarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyat hayotida kuzatiladiga har bir mojaro, har bir kelishmovchilik turli ma'lum va noma'lum sabablarga ko'ra sodir bo'ladi. O'z o'rnida mojarolar ham bir nechta turlarga bo'linadi, bular:

1. Siyosiy mojarolar,
2. Iqtisodiy mojarolar,
3. Etnik mojarolar,
4. Diniy mojarolar,
5. Mafkuraviy mojarolar,
6. Shaxslararo mojarolar,

Bu turdagi har bir mojaroning yuzaga kelishida bir qancha omillar mavjud: masalan, siyosiy mojarolar hokimiyat, resurs yoki siyosiy ta'sir doirasini kengaytirish maqsadi yo'lida vujudga keladi. Ayniqsa, zamonaviy demokratik jamiyatlarda bu xildagi raqobatning kuchayishi yangidan-yangi konfliktlarga o'ziga xos "debocha" bo'lmoqda. Bunga misol tariqasida bugungi AQSh- Isroil va Eron o'rtasida kechayotgan qonli urushni olish mumkin.

Diplomatik konsititutsiya hisoblanuvchi Vena Konvensiyasi (1815)ga ko'ra mojaro va o'zaro konfliktlarni hal etishning asosiy texnologiyalari muzokaralar, vositachilik, arbitraj, kompromis va konsensus, shuningdek, ijtimoiy integratsiya, kommunikativ muloqot va psixologik jarayonlar ko'rsatiladi. Ayni variantlar ko'plab siyosatshunos va

sotsiolog olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan, qarama-qarshi, ayni paytda bir maqsadga yetaklovchi fikrlar ilgari surilgan, izohlangan. Shu sabali klassik olimlarning bu boradagi qarashlarini tubdan o'zganish bugungi kunda vaziyat taqozo etayotgan holdir. Xususan, Gustave Le Bon, Ralf Dahrendorf, Emile Durkheim, Georg Simmel kabi olimlarning qarashlari alohida e'tiborga molik.



“Zamonaviy dunyo tarixidagi eng dahshatli konfliktlardan biri - bu sivilizatsiyalar o'rtasidagi mojarolardir!” - Samuel Hantington.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ham mojarolar hosil bo'lishi va ularning davomiyligi, qay yo'sinda borishida katta rol o'ynamoqda.

Shu sababli ham fransuz faylasufi, XX asrning eng mashhur psixologi yuqoridagi kabi holatlarni to'g'ri prognoz qilgan holda o'zining “Olomon psixologiyasi” kitobida bir qancha yechimlarni berib o'tgan. U omma psixologiyasi bevosita kommunikatsiya va sotsiologiya bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, kollektiv xatti-harakatlarni tizimli ravishda o'rganishni tavsiya etgan. Ushbu asarda u insonning individual xarakteri ratsional tanlovlardan ko'ra ko'proq ommaviy hissiyotlarga va emotsiyalarga berilishi orqali manipulatsiyaga moyilligi va mojarolarni hal etishda samarali emasligi alohida yoritilgan.

Zero, Le Bonning shaxsan o'zi shunday degan edi: “Omma hech qachon haqiqatga erishishga va murosaga tashna bo'lmaydi, hammasidan ham ko'proq illuziya va shirin yolg'onlarni afzal ko'radi...”

Bundan ko'rinadiki, Le Bon fikricha psixologik ta'sirni har qanday siyosiy “vaksina” lar ham yenga olmaydi, ya'ni xalq rahbarning oratorlik mahorati yoki hissiy energiyasining girdobiga tushib qoladi va hatto demokratik jamiyatlarda bu holat avtoritarizm va totalitarizm tomon zamin hozirlaydi.

Mojarolar va konfliktlarni hal etishda ham populizm ta'siri nazoratdan chiqib, bir guruh hokimiyat tepasidagi odamlarning qarori xalqaro maydonda bir millat manfaatlarini ifoda etishi hech gap emas, yoki aks ta'sir ham mavjud.

Bu rahbarning qat'iy qarori va qobiliyati bilan xalqni orqasidan ergashtirib, katta-katta mojaro va muammolarni bartaraf etishi, ularga muqobil yechimlar berishi mumkin. Biz tarixan bu ikki holatga ham guvoh bo'lganmiz.

Bundan tashqari Gustav Le Bon propoganda va OAVning roli haqida ham alohida to'xtalib o'tgan. Darhaqiqat, olim yashagan davrda omma haddan tashqari irratsional deb baholangan, shuning uchun ham Le Bon OAVni xavf sifatida ko'rsatadiki, mojarolarni hal etishdan ko'ra ularni alangalatishidan qo'rqan. Sababi, u Jorj Oreulning "1984" kitobida yozgani kabi "... katta og'a kuzatishi" dan ogohlantirgan va OAVning hokimiyat tepasidagilar qo'lida qo'g'irchoq bo'lishini bashorat qilgan. XX asr mobaynida uning bu prognozlari ayni haqiqat bo'lib chiqdi, u aytganidek, OAV mojarolarni hal etishda shaffof o'yinchi bo'lmadi, balki ommani "shirin yolg'on" bilan siylash vositasi bo'ldi.

Lekin bu vaziyatlarni urush va turli xavfli holatlarda xalqni murosaga keltirish va dushman bilan muzokara o'tkazish, tinchlik va barqarorlikka erishishda richag vazifasini bajarishini ham o'zining "Olomon psixologiyasi" asarida batafsil aytib o'tgan...

Olimning fikrini va qarashlarini rad etmagan holda nemis-britan sotsiologi Ralf Darendorf zamonaviy jamiyatdagi hokimiyat tengsizligi va o'zaro sinfiy konfliktlarni chuqur ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilib, Le Bon yondashuviga ham bir qancha tanqidlar bildirib o'tgan. Xususan, u o'zining mashhur "Industrial jamiyatda sinflar va sinfiy konfliktlar" kitobida mazkur masalani batafsil yoritib bergan. Uning Le Bon bilan o'xshash qarashlari konfliktlar yuzasidan fikr bildirish ko'prigida uchrashgan, ya'ni Darendorf ham mojarolarning faqat qora tomonini ko'rib, uni xavf emas, balki tanganing orqa tomoni bo'lganidek, konfliktlar ham jamiyat kelajagiga musbat qiymatlar keltirishini aytadi. Biroq, R. Darendorf fikricha, yuzaga keladigan har qanday ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mojarolar hokimiyat sabab paydo bo'ladi. Bu haqida u shunday degan: "... qayerda hokimiyat bo'lsa, o'sha yerda mojaro chiqishi tabiiydir..."⁶⁴

Sotsiolog Darendorf o'zining falsafiy qarshlariga ko'ra jamiyatni hukmron va bo'ysunuvchi guruhlariga ajratadi va mojarolarning tub ildizi sifatida ushbu tabaqalar o'rtasidagi qarama-qarshililarni ko'rsatadi. U mojarolarni mutlaq va muqarrar degan nazariyani ilgari surgan. Darendorf ham Karl Marxning ideologiyasidan ilhomlangan, ammo ularning o'rtasida bir qancha farqlar bor:

Birinchidan, u barchaning teng bo'lishini oqlamagan, jamiyatda boy qatlamning saqlanib qolishikerakligini ta'kidlagan, shu sababli Karl Marxning qarashlarini zamonaviy sanoat va postmodern jamiyatga moslashtirgan.


Ikkinchidan, Darendorf hokimiyatning notekis taqsimlashini tabiiy hol deb qabul qilgan, agarda uni sun'iy bo'rttirishga urinish bo'lsa, konflikt sodir bo'lishidan ogohlantirgan.

Uchinchidan, u konfliktlarni to'liq yo'q qilib bo'lmasligini, ular hayotiy jarayon ekaniligini va ushbu mojarolarni faqatgina ratsionaltarзда boshqarish, yechim berish hamda bir qadar bartaraf etish mumkinligini iddao qilgan.

⁶⁴ Industrial jamiyatda sinflar va sinfiy konfliktlar. Darendorf, R. 1959.

To'rtinchidan, o'zining kitobida u kommunizm va marksizm kabi g'oyalar yoki shu kabi davlatsiz hayotni ilgari suruvchi "utopik" loyihalarni mojarolar va konfliktlarni bartaraf etishda, nafaqat bartaraf etishda, balki ularga munosib yechim bera olishda samarali emasligini, ayni paytda risk yuzaga kelganda mo'rtlashib ketishini, keyin esa mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolishini eslatib o'tgan.

Beshinchidan, konfliktlarning boshqarilishi, davomiyligi va oqibatlarini nazorat qilish uchun eng maqbul tanlov sifatida, hokimiyatning demokratik va avtoritar rejimlarini ko'rsatgan. Biroq, mojarolar qarshisida demokratiyaning hokimiyat uchun aks harakatga aylanib ketishidan, muxolifat kelib chiqishidan va qiyin vaziyatda halokatli oqibatlarga olib kelishidan ogohlantirib, davlat apparatining kuch-qudratli bo'lishi, hokimiyat elitasining xalq bilan munosabatlari ijobiy tomonga ishlashi kerakligini, bir so'z bilan aytganda markazlashgan davlat modelini taklif etgan.



Ralf Darendorfning mojarolarni hal etish texnologiyalari nazariyasiga ko'ra, muvozanatni ushlash va paydo bo'lgan mojarolarni bartaraf etish va vaziyatni yumshatishda Parlament, Sud tizimi hamda saylovlarning ahamiyatini yuqori baholagan, shuningdek, ushbu institutlarni eng yumshoq va tinch yo'l sifatida xizmat qilishiga ishonch bildirgan.

Buyuk fransuz boshqa bir siyosatshunosi va sotsiolog olimi Emile Durkheim esa konfliktlar qarshisida jamiyatning ichki ruhiyati, ijtimoiy kayfiyati va axloqiy tartibotlarini asosiy rol o'ynovchi omillar qatorida sanab o'tgan. Sababi oddiy, xalq eng

katta kuchdir, uning irodasi har qanday muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishi yoxud kutilmagan to'lg'in tomon burib yuborishi mumkin. Uning mazkur qarashlari sotsiologiyada alohida va mustaqil fan sifatida shakllangan bo'lib, uning negizida jamiyat turadi. Bunga ko'ra, jamiyat va davlat bir organizmdir. Durkheim(1858-1917) mashhur "Jamiyatda mehnat taqsimoti" kitobida o'z davridan kelib chiqib, industrial zamon o'lkaning taraqqiyotini yengillashtirsa-da insonlar hayotini va o'zaro munosabatlarni murakkbalashtirib yuborishidan ogohlantirgan. Aynan shu tufayli keyinchalik mojaro va konfliktlar har qachongidan ham ortiq bo'lishi va bu xalqlarning ijtioiy ruhiyatiga ham o'z ta'sirini o'tqazishini ta'kidlagan.

E. Durkheim mazkur nazariyani chuqur ilmiy tahlil qilgan hamda "anomiya" tushunchasini fanga olib kirgan. Sotsiolog olim ilmiy asoslarga tayanib shuni aytganki, anomiya - bu qadriyatlar, etik va estetik munosabatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qonuniyatlar, milliy va madaniy an'analar yemirilishi oqibatida yuzaga keladigan kaos holatdir. Durkheim nazariyasi jamiyat taraqqiyotda bir nuqtada to'xtab qolmasligini da'vo qiladi, misol uchun u oldinga siljimayaptimi, demak, u orqda ketayapti. Shuning uchun ham qadriyatlar yo'qola boshlasa va jamiyat yakdil maqsadidan uzoqlashsa, insonlar hayotida buzg'unchilik, o'zaro adovat, turli jinoyatlar sodir bo'lishni boshlaydi, bu esa keyinchalik radikalizmga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyat hisoblanadi.

Boshqa bir olim Georg Simme(1858-1918) ham Durkheim qarashlarining ma'naviy davomchisi bo'lib, u ham xuddi shunday idealogik nazariyaning muallifidir. Simmel ichki barqarorlik tashqi beqarorlikdan himoyalalanishning eng kuchli usllaridan biri deb yozgan. Ayniqsa, bunda kommunikatsiyaning roli beqiyosligini ham qo'shimcha qilgan. Bu ikki olimning qarashlari shuni ifodalaydiki, fuqorolik hissi, milliy o'zlik kabi jamiyatga aloqdarolikni bildiruvchi qadriyatlar, hatto ko'p millatli davlatlarda ham yaqin sherikchilik va odamlar o'rtasida o'zaro integratsiyani rivojlantiradi.



Durkheim va Simmel nazariyalari bugungi kunda ham dolzarbligi yo'qotmagan. Sababi XXI asrda insoniyat tarixdagi eng xavfli va xatarli jarayonlarga kundalik hayotida

duch kelmoqda. Nafaqat harbiy yoki siyosiy tahdidlar, balki axborot tahlikasi ham tobora ortib bormoqda. Ommaviy madaniyat, ya'ni qaysidir ma'noda globalizatsiya davlatlar va mintaqalar, millatlar va elatlar o'rtasidagi tafovutlarga qaramayapti. Qisqa qilib aytganda, globalizatsiya kechagi chegaralarni bugun yuvib yubormoqda. Bunday paytda, o'zaro konfliktlardan saqlanish va mavjud mojarolarga yechim bera olishda diplomatiya, mediatorlik, kompromis va konsensusning roli katta. Bugungi xalqaro maydondagi vaziyatlarga yuqoridagi sotsiologlar, ayniqsa, Simmel qarashlari bir qadar yaqin zamonaviy qiyofaga ega. Haqiqatdan ham, lokal mojarolardan tortib global konfliktlarga qadar, bularning barchasiga butun hamjamiyat bir yoqadan bosh chiqarib yondashishi kerak. Integratsiya qilish uchun zamonaviy davrda masofa, hudud va vaqt muammo emas. Davlatlar va millatlar BMT Bosh kotibi A. Gutterish ta'kidlaganidek, bugungi mojarolar qarshisida ko'z yumib o'tirmasligi kerak. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlarning bu borada kasb etayotgan ahamiyatiga munosib harakat qilmog'i darkor.

So'ngso'z o'rnida shuni aytishim mumkinki, mojarolarni hal etish texnologiyalari bu kuch ishlatar tizimlar orqali amalga oshiriladigan modelar emas, balki, xavfsiz, samarali, tinch va eng asosiysi ilmiy-amaliy tajribaga asoslangan yondashuvlar orqali konfliktlarni bartaraf etish, adolat va qonun ustivorligini ta'minlash, o'zaro muloqot va diplomatik yondashuvlar eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Konfliktologiya fanidan bizga ma'lumki, tinchlik - bu urushlarga barham berilgani emas, balki jamiyatda adolat, tenglik va o'zaro muloqotning mavjudligi belgisidir. Demak, Le Bon, Dahrendorf, Durkheim va Simmel kabi sotsiologlarning qarashlari nafaqat konfliktlarni boshqarish, hal etish va oldini olishga qaratilgan, balki ijtimoiy munosabatlar va institutsional yondashuvlar orqali jamiyada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutgan konsepsiyalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Le Bon, Gustave. Olomon psixologiyasi. London: T. Fisher Unwin, 1896.
2. Dahrendorf, Ralf. Industrial jamiyatda sinf va sinfiy konflikt. Stanford: Stanford University Press, 1959.
3. Durkheim, Emile. Jamiyatda mehnat taqsimoti. New York: Free Press, 1984.
4. Simmel, Georg. Konflikt va guruhlararo aloqalar tizimi. New York: Free Press, 1955.
5. Coser, Lewis A. Ijtimoiy konflikt funksiyalari. New York: Free Press, 1956.
6. Huntington, Samuel P. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi. New York: Simon & Schuster, 1996.
7. Giddens, Anthony. Sotsiologiya. Cambridge: Polity Press, 2009.
8. Collins, Randall. Konflikt sotsiologiyasi. New York: Academic Press, 1975.